


## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 786,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 199,3 mln. AQSh dollariga yoki 20,2 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI**  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari)



*Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

**SAMARQAND VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

TSA da eksport hajmi 172,4 mln. AQSh dollariga (16,3 % ga kamaydi) va import hajmi 613,9 mln. AQSh dollariga (21,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida - 441,4 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

| Top-10 davlatlar        | TSA   | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|-------------------------|-------|---------|--------|--------------|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 164,2 | 13,6    | 150,6  | 20,9         |
| Rossiya Federatsiyasi   | 125,1 | 33,1    | 92,0   | 15,9         |
| Qozog`iston             | 79,2  | 26,4    | 52,8   | 10,1         |
| Turkiya                 | 75,2  | 16,4    | 58,8   | 9,6          |
| Yaponiya                | 40,9  | 0,1     | 40,7   | 5,2          |
| Sloveniya               | 19,0  | 0,0     | 19,0   | 2,4          |
| Germaniya               | 18,9  | 0,7     | 18,2   | 2,4          |
| Tojikiston              | 17,9  | 17,0    | 0,9    | 2,3          |
| Latviya                 | 17,1  | 0,7     | 16,4   | 2,2          |
| Ukraina                 | 16,2  | 3,3     | 12,9   | 2,1          |

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Samarqand, jahonning 79 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (20,9 %), Rossiya Federatsiyasida (15,9 %), Qozog`istonda (10,1 %), Turkiyada (9,6 %), Yaponiyada (5,2 %), Sloveniyada (2,4 %) va Germaniyada (2,4 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Tojikiston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Tojikiston, Qirg`iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya va Yaponiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 30 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan o`nta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Sloveniya (19,0 mln. AQSh dollari), Tojikiston (17,9 mln. AQSh dollari), Litva (15,8 mln. AQSh dollari), Vengriya (14,4 mln. AQSh dollari), Qirg`iz Respublikasi (12,5 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 20 ta yirik hamkor-davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari)


| Davlatlar                      | 2018-y.      | 2019-y.      | 2020-y.      |
|--------------------------------|--------------|--------------|--------------|
| <b>Xitoy Xalq Respublikasi</b> | <b>119,7</b> | <b>192,8</b> | <b>164,2</b> |
| Eksport                        | 7,7          | 14,5         | 13,6         |
| Import                         | 112,0        | 178,3        | 150,6        |
| Saldo                          | -104,3       | -163,7       | -137,0       |
| <b>Rossiya Federatsiyasi</b>   | <b>122,7</b> | <b>159,8</b> | <b>125,1</b> |
| Eksport                        | 36,2         | 55,6         | 33,1         |
| Import                         | 86,5         | 104,2        | 92,0         |
| Saldo                          | -50,3        | -48,7        | -58,9        |
| <b>Qozog`iston</b>             | <b>83,3</b>  | <b>112,4</b> | <b>79,2</b>  |
| Eksport                        | 20,1         | 24,0         | 26,4         |
| Import                         | 63,3         | 88,4         | 52,8         |
| Saldo                          | -43,2        | -64,4        | -26,5        |
| <b>Turkiya</b>                 | <b>86,9</b>  | <b>106,7</b> | <b>75,2</b>  |
| Eksport                        | 13,1         | 17,0         | 16,4         |
| Import                         | 73,8         | 89,7         | 58,8         |
| Saldo                          | -60,7        | -72,7        | -42,4        |
| <b>Yaponiya</b>                | <b>39,2</b>  | <b>45,3</b>  | <b>40,9</b>  |
| Eksport                        | -            | 2,1          | 0,1          |
| Import                         | 39,2         | 43,2         | 40,7         |
| Saldo                          | -39,2        | -41,1        | -40,6        |
| <b>Sloveniya</b>               | <b>15,3</b>  | <b>7,5</b>   | <b>19,0</b>  |
| Eksport                        | -            | -            | -            |
| Import                         | 15,3         | 7,5          | 19,0         |
| Saldo                          | -15,3        | -7,5         | -19,0        |
| <b>Germaniya</b>               | <b>54,1</b>  | <b>59,8</b>  | <b>18,9</b>  |
| Eksport                        | 1,0          | 1,7          | 0,7          |
| Import                         | 53,1         | 58,1         | 18,2         |
| Saldo                          | -52,1        | -56,4        | -17,4        |

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari)

| Davlatlar                   | 2018-y.     | 2019-y.     | 2020-y.     |
|-----------------------------|-------------|-------------|-------------|
| <b>Tojikiston</b>           | <b>5,0</b>  | <b>8,9</b>  | <b>17,9</b> |
| Eksport                     | 4,6         | 7,6         | 17,0        |
| Import                      | 0,4         | 1,3         | 0,9         |
| Saldo                       | 4,3         | 6,3         | 16,0        |
| <b>Latviya</b>              | <b>23,3</b> | <b>29,8</b> | <b>17,1</b> |
| Eksport                     | 1,6         | 1,0         | 0,7         |
| Import                      | 21,7        | 28,8        | 16,4        |
| Saldo                       | -20,2       | -27,8       | -15,8       |
| <b>Ukraina</b>              | <b>13,9</b> | <b>19,4</b> | <b>16,2</b> |
| Eksport                     | 2,5         | 8,7         | 3,3         |
| Import                      | 11,4        | 10,7        | 12,9        |
| Saldo                       | -8,9        | -2,0        | -9,6        |
| <b>Litva</b>                | <b>7,1</b>  | <b>11,3</b> | <b>15,8</b> |
| Eksport                     | 0,1         | 1,1         | 1,4         |
| Import                      | 7,0         | 10,2        | 14,4        |
| Saldo                       | -6,9        | -9,1        | -13,0       |
| <b>Vengriya</b>             | <b>6,7</b>  | <b>7,0</b>  | <b>14,4</b> |
| Eksport                     | -           | 0,2         | 0,1         |
| Import                      | 6,7         | 6,9         | 14,3        |
| Saldo                       | -6,7        | -6,7        | -14,2       |
| <b>Qirg'iz Respublikasi</b> | <b>5,4</b>  | <b>6,7</b>  | <b>12,5</b> |
| Eksport                     | 5,1         | 6,0         | 11,3        |
| Import                      | 0,3         | 0,8         | 1,2         |
| Saldo                       | 4,8         | 5,2         | 10,1        |
| <b>Gruziya</b>              | <b>2,9</b>  | <b>3,3</b>  | <b>11,8</b> |
| Eksport                     | 1,3         | 1,4         | 1,9         |
| Import                      | 1,6         | 1,9         | 9,9         |
| Saldo                       | -0,3        | -0,5        | -8,0        |

**SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Mamlakatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-iyul oylarida, viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,3 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018-yilga nisbatan ulushi 3,5 % ga oshgan.




Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi ham 2020-yil yanvar-iyul oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan kamaydi (20,2 % ga) va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 64,7 % ni tashkil etdi.

## SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-iyul)

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning eksportyorlari soni 431 tani tashkil etib, ular tomonidan 151,5 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 16,5 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,3 % ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va trik hayvonlar (44,6 %), material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (19,5 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (11,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST  
BO`YICHA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-iyul,  
ulushi, % da)



| XSST tarkibi   | Mln. AQSh dollari |                |                  | Umumiy hajmga nisbatan, % da |                |                  |
|--|-------------------|----------------|------------------|------------------------------|----------------|------------------|
|  | Jami              | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami                         | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| <b>Jami eksport</b>  | <b>172,4</b>      | <b>104,8</b>   | <b>67,6</b>      | <b>100</b>                   | <b>100</b>     | <b>100</b>       |
| shu jumladan:  |                   |                |                  |                              |                |                  |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 75,4              | 46,1           | 29,2             | 43,7                         | 44,0           | 43,2             |
| Ichimliklar va tamaki  | 0,6               | 0,6            | 0,1              | 0,4                          | 0,5            | 0,1              |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                                      | 8,4               | 3,7            | 4,7              | 4,9                          | 3,5            | 7,0              |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar                      | 5,7               | 2,6            | 3,1              | 3,3                          | 2,5            | 4,5              |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 2,1               | 1,7            | 0,4              | 1,2                          | 1,6            | 0,6              |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari              | 36,3              | 15,5           | 20,8             | 21,0                         | 14,8           | 30,7             |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari   | 17,6              | 15,1           | 2,5              | 10,2                         | 14,4           | 3,7              |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 18,8              | 16,2           | 2,6              | 10,9                         | 15,5           | 3,9              |
| Xizmatlar  | 7,5               | 3,2            | 4,2              | 4,3                          | 3,1            | 6,3              |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar xissasiga to`g`ri kelmoqda.

| XSST tarkibi   | 2019 yilning yanvar-iyuliga nisbatan,<br>% da |                |                  |
|--|---|----------------|------------------|
|  | Jami  | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| <b>Jami</b>  | <b>83,7</b>                                   | <b>74,4</b>    | <b>91,0</b>      |
| shu jumladan:  |   |                |                  |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 72,3  | 61,3           | 81,5             |
| Ichimliklar va tamaki  | 51,6  | 189,5          | 46,8             |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari                                      | 52,6  | 47,6           | 60,6             |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar                | 0,0   | 0,0            | 0,0              |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar                      | 93,7 m.                                       | 50,7 m.        | -                |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 166,2   | 76,5           | 234,3            |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari              | 135,5   | 195,6          | 96,1             |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari   | 108,3   | 43,3           | 144,4            |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 110,1   | 141,7          | 106,3            |
| Xizmatlar  | 40,0  | 36,0           | 47,0             |

MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(2020-yil  
yanvar-iyul)

2020-yil yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-iyuliga nisbatan, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o`shish kuzatildi.

**EKSPORT  
TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
% da)**

| XSST tarkibi   | 2018-y.      | 2019-y.      | 2020-y.      |
|--|--------------|--------------|--------------|
| <b>Jami</b>  | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| shu jumladan:  |              |              |              |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 43,7         | 43,2         | 44,0         |
| Ichimliklar va tamaki  | 0,4          | 0,1          | 0,5          |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari                                      | 4,9          | 7,0          | 3,5          |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar                | 0,0          | 0,0          | 0,0          |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar                      | 3,3          | 4,5          | 2,5          |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 1,2          | 0,6          | 1,6          |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari              | 21,0         | 30,7         | 14,8         |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari   | 10,2         | 3,7          | 14,4         |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 10,9         | 3,9          | 15,5         |
| Xizmatlar  | 4,3          | 6,3          | 3,1          |

**XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-iyul)**


| XSST bo`limi nomi   | Mln. AQSh dollari | 2019-yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|-------------------|---|
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>                                       |                   |   |
| Sabzavotlar va mevalar  | 58,7              | 60,9                                    |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)                             | 8,8               | 2,5 m.                                  |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari  | 2,6               | 141,7                                   |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar                                       | 2,0               | 2,2 m.                                  |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar                       | 1,5               | 92,2                                    |
| <b>Ichimliklar va tamaki</b>  |                   |   |
| Ichimliklar   | 0,6               | 50,0                                    |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari   | 0,02              | 4,2 m.                                  |
| <b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari</b>                                      |                   |   |
| To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari   | 6,1               | 53,2                                    |
| Moy olinadigan urug`lar va mevalar  | 1,2               | 42,8                                    |
| Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari                         | 0,4               | 33,7                                    |
| <b>Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar</b>                      |                   |   |
| O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)                      | 5,7               | 93,7 m.                                 |
| <b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar</b> |                   |   |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari  | 0,9               | 8,2 m.                                  |
| O`g`itlar   | 0,2               | 35,0                                    |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar   | 0,2               | 4,9 m.                                  |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar                         | 0,7               | 114,7 m.                                |

**XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020 yil  
yanvar-iyul)**

| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari  |      |         |
|--|------|---------|
| To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar  | 28,3 | 144,7   |
| Metallidan tayyorlangan buyumlar   | 4,3  | 142,5   |
| Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan   | 2,3  | 120,5   |
| Rangli metallar  | 0,9  | 55,3    |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari   |      |         |
| Avtomobillar   | 16,3 | 112,0   |
| Energiya generatori mashinalari va asbob uskunalar   | 0,5  | 2,2 m.  |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari  | 0,4  | 28,9    |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar Metallarni qayta ishlash mashinalari  | 0,3  | 7,7 m.  |
| Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari   | 0,2  | 102,9   |
| Turli xil tayyor buyumlar  |      |         |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari  | 12,5 | 86,9    |
| Poyabzal   | 4,8  | 2,1 m.  |
| Blokli binolar, suv o`tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va maxkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan | 1,1  | 12,1 m. |
| Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan   | 0,3  | 115,7   |
| Xizmatlar  |      |         |
| Transport xizmatlari   | 3,0  | 42,3    |
| Qurilish xizmatlari  | 2,8  | -       |
| Moliyaviy xizmatlari   | 1,0  | 61,7    |

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-iyuldagi 52,9 % dan 2020-yil yanvar-iyulida 60,8 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 39,2 % ni tashkil etdi.

MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)



2020-yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 19,2 % i), Qozog'iston (15,3 %), Tojikiston (9,9 %), Turkiya (9,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (7,9 %), Qirg'iz Respublikasi (6,6 %) va Afg'oniston (4,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 73,1 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadam bo'lib kelmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yilning mos davriga nisbatan 62 davlatdan 58 davlatga kamaydi.



VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020-yil  
yanvar-iyul,  
% da)



SAMARQAND  
VILOYATINING  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLARGA  
AMALGA  
OSHIRGAN  
EKSPORTI  
HAJMI VA  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(yanvar-iyul)

| Davlatlar               | Mln.AQSH dollari |         | O'zgarish sur'ati,<br>% da |         | O'rni   |         |
|-------------------------|------------------|---------|----------------------------|---------|---------|---------|
|                         | 2019-y.          | 2020-y. | 2019-y.                    | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Rossiya Federatsiyasi   | 55,6             | 33,1    | 153,3                      | 59,6    | 1       | 1       |
| Qozog'iston             | 24,0             | 26,4    | 119,5                      | 109,9   | 2       | 2       |
| Tojikiston              | 7,6              | 17,0    | 164,1                      | 2,2 m.  | 8       | 3       |
| Turkiya                 | 17,0             | 16,4    | 129,6                      | 96,4    | 3       | 4       |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 14,5             | 13,6    | 188,4                      | 93,6    | 4       | 5       |
| Qirg'iz Respublikasi    | 6,0              | 11,3    | 117,0                      | 189,3   | 9       | 6       |
| Afg'oniston             | 10,6             | 8,3     | 91,5                       | 78,4    | 6       | 7       |
| Ozərbayjon              | 5,7              | 6,2     | 169,6                      | 107,5   | 10      | 8       |
| Singapur                | 1,6              | 4,8     | 34,2                       | 3,0 m.  | 18      | 9       |
| Belarus Respublikasi    | 4,4              | 4,3     | 132,6                      | 98,5    | 11      | 10      |
| Iroq                    | 3,7              | 3,4     | 2,4 m.                     | 89,6    | 12      | 11      |
| Ukraina                 | 8,7              | 3,3     | 3,5 m.                     | 38,5    | 7       | 12      |
| Misir                   | 0,0              | 3,2     | -                          | -       | 44      | 13      |
| Turkmaniston            | 2,8              | 2,8     | 3,8 m.                     | 99,9    | 13      | 14      |
| Gruziya                 | 1,4              | 1,9     | 111,0                      | 135,4   | 20      | 15      |
| BAA                     | 1,7              | 1,9     | 60,6                       | 114,6   | 17      | 16      |
| AQSH                    | 1,5              | 1,8     | 111,9                      | 116,0   | 19      | 17      |
| Litva                   | 1,1              | 1,4     | 8,4 m.                     | 134,0   | 21      | 18      |
| Eron                    | 12,1             | 1,3     | 2,5 m.                     | 10,4    | 5       | 19      |
| Polsha                  | 2,4              | 1,0     | 7,4 m.                     | 43,8    | 14      | 20      |

**VILOYATNING  
AYRIM  
DAVLATLAR  
BILAN EKSPORT  
TARKIBI  
(2020 yil  
yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollarida)**

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

| XSST tarkibi   | Rossiya Federatsiyasi |             | Qozog'iston |             | Tojikiston |             | Turkiya     |             |
|--|-----------------------|-------------|-------------|-------------|------------|-------------|-------------|-------------|
|  | 2019-y.               | 2020-y.     | 2019-y.     | 2020-y.     | 2019-y.    | 2020-y.     | 2019-y.     | 2020-y.     |
| <b>Jami eksport</b>  | <b>55,6</b>           | <b>33,1</b> | <b>24,0</b> | <b>26,4</b> | <b>7,6</b> | <b>17,0</b> | <b>17,0</b> | <b>16,4</b> |
| shu jumladan:  |                       |             |             |             |            |             |             |             |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 27,6                  | 14,9        | 8,4         | 9,1         | 4,5        | 11,2        | 10,5        | 5,6         |
| Ichimliklar va tamaki  | 0,7                   | 0,4         | 0,2         | 0,1         | 0,0        | 0,0         | 0,0         | 0,0         |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                                      | 2,5                   | 1,7         | 1,7         | 1,1         | 0,1        | 0,1         | 0,2         | 0,2         |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar                | 1,8                   | 0,0         | 0,0         | 0,0         | 0,0        | 0,0         | 0,7         | 0,0         |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar                      | 0,0                   | 0,0         | 0,0         | 0,0         | 0,0        | 1,7         | 0,0         | 0,0         |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 0,0                   | 0,0         | 0,4         | 0,6         | 0,2        | 0,6         | 0,0         | 0,0         |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari              | 2,9                   | 2,8         | 3,3         | 3,1         | 1,2        | 1,6         | 4,2         | 8,1         |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar  | 0,6                   | 0,2         | 8,6         | 10,3        | 0,9        | 0,6         | 0,5         | 1,8         |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 12,6                  | 10,1        | 1,4         | 2,0         | 0,6        | 1,1         | 0,0         | 0,3         |
| Xizmatlar  | 6,8                   | 3,2         | 0,0         | 0,0         | 0,0        | 0,0         | 0,8         | 0,4         |

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 56,2 mln. dollar qiymatli 82,0 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 27,2 mln. AQSh dollariga pastlashish kuzatilib, 32,6 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 18,9 mln. AQSh dollariga teng 49,2 ming tonna sabzavot, shuningdek, 16,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 15,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI  
(2020 yil  
yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (22,4 %), Xitoy xalq Respublikasi (14,2 %), Qozog`iston (13,6 %) va Turkiya (8,8 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

| Davlatlar               | 2019-yil   |                   |               | 2020-yil   |                   |               |
|-------------------------|------------|-------------------|---------------|------------|-------------------|---------------|
|                         | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| Rossiya Federatsiyasi   | 18,0       | 14,6              | 17,5          | 13,6       | 12,6              | 22,4          |
